

AL-ANDALUS – SAKKIZ ASRLIK BUYUK TAMADDUNMI YOKI YEVROPANI
UYG‘OTGAN ILM VA SAN‘AT MANBAI?

Rustamboyev Islomjon Doniyor o‘g‘li

Oriental universiteti

Tarix kafedrası o‘qituvchisi

islomjonrustamboyev@gmail.com

Islomova Mushtariybonu Azizjon qizi

mushtariyislamova7@gmail.com

Oriental universiteti, Tarix fakulteti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15707104>

Annotatsiya. Bu maqolada Al-Andalus (Islomiy Ispaniya) davrining tarixiy va madaniy ahamiyatini yoritadi. Maqolada Kordova, Shativa, Toledo kabi poytaxtlarning ilm-fan, madaniyat va bag‘rikenglik markazi sifatida paydo bo‘lgani, arab-musulmon olimlar va tarjimonlar orqali Yevropa uyg‘onishiga ulkan hissa qo‘shilgani qayd etilgan. Andalusiyaning atrof-muhiti, kutubxonalar, ilmiy ixtirolar, sug‘orish tizimlari va diniy mulohazalar orqali xalqqa qanday ta’sir ko‘rsatgani tilga olingan.

Kalit so‘zlar: Al-Andalus, Qurtuba (Kordova), ilm-fan, madaniyat, bag‘rikenglik, tarjima maktablari, kutubxona, sug‘orish tizimi, ilmiy ixtirolar, yozuvchilar, musulmon olimlar.

Аннотация. В этой статье освещается историческое и культурное значение периода Аль-Андалуса (исламской Испании). В статье отмечается, что такие города, как Кордова, Шатива и Толедо стали центрами науки, культуры и терпимости, и что мусульманские ученые и переводчики внесли огромный вклад в европейское Возрождение.

Также упоминается влияние андалусской среды, библиотек, научных изобретений, ирригационных систем и религиозных размышлений на общество.

Ключевые слова: Аль-Андалус, Куртуба (Кордова), наука, культура, терпимость, переводческие школы, библиотека, ирригационная система, научные изобретения, писатели, мусульманские ученые.

Annotation. This article highlights the historical and cultural significance of the Al-Andalus (Islamic Spain) period. It notes that cities like Cordoba, Xativa, and Toledo emerged as centers of science, culture, and tolerance, and that Arab-Muslim scholars and translators made a tremendous contribution to the European Renaissance. The article also discusses how Andalusia's environment, libraries, scientific inventions, irrigation systems, and religious reflections influenced the population.

Keywords: Al-Andalus, Qurtuba (Cordoba), science, culture, tolerance, translation schools, library, irrigation system, scientific inventions, writers, Muslim scholars.

Islomiy Ispaniya – Al-Andalus¹, Yevropa tarixidagi eng yorqin va muhim bosqichlardan biridir. Bu hudud o‘rta asrlar zulmatida qolgan Yevropaga ilm-fan, san‘at, madaniyat va bag‘rikenglik nurini olib kirgan noyob tajriba maydoniga aylandi.

¹ Andalusiya – Ispaniyaning janubiy qismidagi muxtor viloyat. Ma’muriy markazi – Sevilya shahri. Ma’muriy jihatdan 8 provinsiya – Almeriya, Granada, Kadis, Kordova, Malaga, Seviliya, Uelva, Xaenga bo‘linadi. Arablar uchbu hududni al – Andalus deb atagan.

Aynan shu yerda xristianlik va islomiyat uyg'unlashgan holda, ilm-fan va madaniyat gullab-yashnagan "oltin davr"² yuzaga keldi. Andalusiya o'z davrida nafaqat Yevropa, balki butun dunyo uchun muhim ilmiy va madaniy markaz bo'lib xizmat qilgan.

Kordova shahrining ming yil oldingi holatini tasavvur qilishning o'zi kishini hayratga soladi. Yevropaning Parij, Venetsiya yoki Rim kabi shaharlarida tunda mash'ala bilan yurishga majbur bo'lgan odamlar fonida, Qurtuba (Kordova) aholisi ko'chalarining yoritilganligi bois bimalol kechki hayot bilan yashashgan. Tozalikka bo'lgan e'tibor ham yuksak bo'lib, shahar ichida sakkiz yuzga yaqin hammom faoliyat yuritgan, toza ichimlik suvi esa uylar ichigacha yetkazilgan edi.

Xalifa Hakam II³ kutubxonasi to'rt yuz ming jildli kolleksiyasi bilan o'sha davrdagi Yevropa qirolliklaridagi bir nechta kitobdan iborat kutubxonalardan tubdan farq qilgan.

Bag'dodda yozilgan kitoblar qisqa vaqt ichida Qurtubaga yetib kelar va ilm-fan almashinuvi davomli bo'lib turgan. Yevropaning ilk qog'oz fabrikasi ham Andalusiya, Shativa⁴ shahrida tashkil etilgan bo'lib, bu ilmning keng tarqalishiga katta hissa qo'shgan.

Andalusiyaning tarixiy ildizlari chuqur. Bu yerda dastlab iberlar, ligurlar va keltlar yashagan, keyinchalik esa finikiyaliklar, yunonlar, karfagenliklar va rimliklar hukmronlik qilgan.

Rim imperiyasi tanazzulga uchragach, mamlakat vesgotlar qo'liga o'tdi. Ammo ularning ichki ixtiloflari, ijtimoiy adolatsizlik va zaif boshqaruv musulmonlarning kelishini osonlashtirdi.

711-yilda arab-amir Toriq ibn Ziyod qo'shini Andalusiya kelib tushdi va qisqa vaqt ichida mamlakatni zabt etdi⁵. Gibraltar⁶ nomi aynan uning ismi - «Jabali Toriq» («Toriq tog'i») dan kelib chiqqan. Fath⁷ juda tez va nisbatan tinch yo'l bilan amalga oshdi. Ko'plab shaharlar, jumladan, Kordova, Malaga, Grenada, Toledo deyarli qarshiliksiz taslim bo'ldi. Arablar nasroniylarga o'z dini, cherkovlari va mulklarini saqlab qolish huquqini berib, faqat jizya to'lashni shart qilib qo'ydilar.

Mazkur diniy bag'rikenglik va odilona siyosat natijasida musulmonlar ko'plab aholining qalbini zabt etishga muvaffaq bo'ldilar. Shu sababli, Ispaniyani nasroniylar tomonidan qayta zabt etish uchun sakkiz asr vaqt kerak bo'ldi.

Fransuz faylasufi va tarixchi Gyustav Lebon⁸ bu davr haqida shunday deydi: "Agar xalifa Muso ibn Nusayrni Damashqqa qaytarishga buyruq bermaganida edi, musulmonlar butun Yevropani bosib o'tib, uni Qur'on bayrog'i ostida birlashtirgan bo'lishi mumkin edi. Bu holda, Yevropa arablar orqali o'rta asrlar zulmatidan qutulgan, yagona diniy va madaniy birlikda taraqqiy etgan bo'lardi."

² Al-Andalus: The Art of Islamic Spain, held at the Alhambra, Granada (March 18-June 7, 1992), and The Metropolitan Museum of Art, New York (July 1-September 27, 1992).

³ К.Э.БОСВОРТ. МУСУЛМОН СУЛОЛАЛАРИ. Тошкент "Фан" 2007. 17-b.

⁴ Yoki Xativa – Ispaniyaning Valensiya provinsiyasidagi shahar. Arablar Shatiba deb atagan.

⁵ Евгений Александрович Беляев. АРАБЫ, ИСЛАМ И АРАБСКИЙ ХАЛИФАТ В РАННЕЕ СРЕДНЕВЕКОВЬЕ. «НАУКА». Москва. 1966. С-189-90

⁶ Gibraltar bo'g'oz – Pireney yarim orolning janubiy chekkasi Yevropa bilan Afrikaning shimoliy-g'arbiy uchi o'rtasidagi bo'g'oz. Atlantika okeanini O'rta dengiz bilan birlashtirib turadi. Uzunligi 65 km, eni 14-44 km.

⁷ Fath (arabcha: الفتح), al-Fath (الفتح) — arabcha so'z bo'lib, "g'alaba", "ochish" degan ma'nolarini anglatadi.

⁸ Gyustav Lebonning "Arab Sivilizatsiyasi" ("La Civilisation des Arabes") deb nomlangan asar muallifi. Bu kitob 1884-yilda nashr etilgan bo'lib, u o'z vaqtida katta shuhrat qozongan. Asarda arab sivilizatsiyasining jahon tarixidagi o'rnini, arab olimlarining fanga qo'shgan hissasini va arab madaniyatining Yevropaga ta'sirini o'rganadi. Lebon arab sivilizatsiyasining yutuqlarini yuqori baholaydi va ularning Yevropa madaniyatiga ta'sirini tan oladi.

Andalusiya – nafaqat musulmonlar tarixidagi, balki insoniyat sivilizatsiyasi tarixidagi eng yorqin sahifalardan biridir. Bu tamaddun ilm, san’at, bag’rikenglik va taraqqiyot namunasi sifatida Yevropa uyg’onishining zaminini tayyorlab berdi. Shu bois, Al-Andalusni “sakkiz asrlik tush” emas, balki uyg’onish sari yetaklagan haqiqat, nurli davr deb baholash to’g’riroq bo’ladi.

Fransuz tarixchisi Gustav Lebonning 1884-yilda nashr etilgan mashhur asarida arab-islom madaniyatining jahon tamadduniga, ayniqsa Yevropa madaniyatiga ko’rsatgan ta’siri fundamental tarzda tahlil etilgan. Lebonning fikricha, aynan musulmonlar Yevropa fanining, falsafasining va umuman madaniyatining ustozlari bo’lgan. Musulmonlar olib kirgan ilm-fan va tafakkur tufayli Yevropa o’zining yarim yovvoyi o’rta asrlaridan chiqib, uyg’onish davri madaniyatiga erishdi. Uning yozishicha, arablar Yevropaga ayniqsa aniq fanlar, tarix va falsafa sohalaridagi yutuqlari bilan chuqur ta’sir ko’rsatgan.

Musulmonlar 711-yilda Andalusiya kirib kelganlaridan so’ng, 756-yilga qadar bu yer Damashqdagi xalifalik imperiyasining tarkibida bo’lgan. 756-yilda esa u abbosiylar xalifaligidan ajralib chiqib⁹, Qurtubani poytaxt qilgan mustaqil davlatga aylandi. Andalusning asoschisi Umaviylar sulolasidan bo’lgan Abdurrahmon edi. Andalus mamlakati faqat Ispaniya emas, balki Portugaliyaning katta qismini ham o’z ichiga olgan bo’lib, dastlab Qurtuba, keyinchalik Sevilya va Granada asosiy siyosiy markazlarga aylangan.

Andalusiya musulmonlar hukmronligining ilk yillaridayoq mahalliy xalqlar ommaviy ravishda islomni qabul qila boshladilar. Bu ularga shaxsiy erkinlik, xususiylar mulkka egalik qilish va erkin hayot tarzini taqdim etdi. Ayni paytda ko’plab nasroniylar ham arab tilini, madaniyatini va turmush tarzini qabul qilib, mozarablar¹⁰ (arablashgan) qatlamga aylandilar. IX – X asrlarda Andalus jamiyati ko’p tilli va ko’p madaniyatli muhitga aylandi.

Musulmonlar kelgach, ilgari rivojlanmagan Ispaniya yurtlarida shaharlar jonlandi, yangi ekin maydonlari ochildi, savdo-sotiq rivojlandi va betakror obidalar qurildi. Ayniqsa, Qurtuba uch asr mobaynida Yevropaning eng yuksak ilmiy va madaniy markazlaridan biri bo’ldi. Bu yerda yunon va lotin tilidagi asarlar tarjima qilinib, oliy ta’lim muassasalari tashkil etildi.

Buyuk Andalusiya allomalar – Abbos ibn Firnas¹¹ ilk parashyut va delpaplan ixtirochisi, shuningdek planetariy va vaqt o’lchov asboblari muallifi. 852-yilda – Abbos ibn Firnas patlardan va yog’och tirgaklar ustiga cho’zilgan matolardan qanotlar yasagan. Bu apparat bilan u Kordovadagi Ulug’ masjid minorasidan sakrab chiqdi. Abbos ibn Firnasning qurilmasi soyabonga o’xshardi va tarixda ma’lum bo’lgan birinchi parashyut hisoblanadi. U faqat kichik jarohatlar bilan qo’ndi. Ibn Baytar – farmatsevtika sohasida 1400 ga yaqin dorivor o’simliklarni tasvirlab, o’z davrining eng yirik o’simlikshunos sifatida tanilgan. Misr o’simlikshunoslari raisi etib tayinlangan. Dorivor o’simliklar haqida arab tilidagi “Kitob ul-mug’ni fil-advayat il-mufrad” (“Nodir dorilar kitobi”) va “Al-Mufradot, aladviya val-ag’ziya” (“Dorivor o’simliklar, dorilar va taomlar”) asarlari bizgacha yetib kelgan.

⁹ Al-Andalus: The Art of Islamic Spain, held at the Alhambra, Granada (March 18-June 7, 1992), and The Metropolitan Museum of Art, New York (July 1-September 27, 1992). 30-b.

¹⁰ Mozarablar – arab musulmonlari tomonidan boshqariladigan Ispaniyada madaniy va til jihatidan arablashgan nasroniy ispanlar.

¹¹ Abul-Qosim Abbos ibn Firnas at-Takuriniy (810-887) 810-yilda Andalusiyaning Ronda shahrida berber oilasida tug’ilgan. Uning ajdodlari, ehtimol, Pireney yarim orolini zabt etishda qatnashgan.

Ularni yozishda Dioskarid, Galen, Ibn Sino va boshqa olimlarning asarlaridan foydalangan¹². Jumladan, Ibn Sinoning “Yurak dorilari” risolasidagi barcha oddiy dorilarni (65 ta) oʻz asariga kiritgan, baʼzi oddiy yurak dorilarini Ibn Sino kashf etganligini yozadi.

Xalaf Zahroviy¹³ (Albucasis) – jarrohlikni mustaqil fanga aylantirib, ikki yuzga yaqin jarrohlik asbobini tavsiflagan, “Kitab at-Tasrif” asari Yevropa tibbiyotiga ham katta taʼsir koʻrsatgan va besh asr undan foydalanib kelishgan. Jobir ibn Aflax Sevilyada rasadxona qurgan va Ptolemey asaridagi xatolarni tuzatgan falakiyotchi. Jobir ibn Aflaxning sharafiga oyda Geber krateri uning nomi bilan atalgan¹⁴. al-Bitrujiy sayyoralar harakati haqidagi yangi nazariya muallifi. Ibrohim az-Zarqaliy usturlobni takomillashtirgan, oʻrta asr falakiyotining yetakchi arbobi. Ibn Rushd¹⁵ (Averroes) – Aristotel gʻoyalarining buyuk sharhlovchisi, Gʻarbdagi “lotin averroizmi” oqimiga asos solgan. Al-Andalus musulmon sivilizatsiyasining Yevropa bilan tutashgan, uni ilm, madaniyat va fan orqali uygʻotgan tarixiy makoni boʻlgan. Bu yurt nafaqat musulmon olamining, balki butun insoniyat tarixining ilmiy va madaniy taraqqiyotiga ulkan hissa qoʻshgan. Andalusiyadan yetishib chiqqan olimlar, faylasuflar, ixtirochilar va sanʼatkorlar nomi bugun ham gʻarb va sharq sivilizatsiyalarining tarixiy oʻzaro boyishida muhim oʻrin tutadi.

Al-Andalus, xususan, Qurtuba shahri, oʻrta asr islom tamaddunining yorqin timsoli boʻlib, uning ilm-fan, madaniyat va tarjima sohasidagi yutuqlari butun Yevropa uygʻonish davrining shakllanishida muhim rol oʻynadi. XI asrda boshlangan yunon-arab merosini oʻzlashtirish jarayoni Yevropaning turli mintaqalarida XVI – XVII asrlarda davom etdi. Bu jarayon avvalo Ispaniyada, xususan, Toledoda boshlangan boʻlib, bu yerda tashkil etilgan «Toledo tarjimonlar maktabi» arab tilidagi ilmiy-falsafiy merosni lotin tiliga tarjima qilish markaziga aylandi.

Qurtubalik olim al-Idrisiy (1100 – 1166) tomonidan yaratilgan xarita bugungi zamonaviy geografik tasvirlarga yaqinligi bilan ajralib turadi. Ibn Haysam (965–1051) ning «Tasvirlar kitobi» esa optika ilmining asosini tashkil etib, keyinchalik Rojer Bekon¹⁶, Leonardo da Vinchi¹⁷ va Kepler¹⁸ va kabi mashhur gʻarb olimlariga ilhom manbai boʻldi. Ibn Haysamning yorugʻlik aksini tushuntiruvchi qonunlari Yevropada «Al-Xazin muammosi» deb nom olgan edi.

¹² Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.

¹³ Abulqosim Xalaf ibn Abbos az-Zahraviy yoki Abulkasis (936, Madina az-Zahro — 1013, Madina az-Zahra) — Andalusiyalik arab tabibi va olimi (zamonaviy Ispaniya hududida). U Kordoba xalifasi Al-Hakam II ning saroy tabibi boʻlgan.

¹⁴ Oydagi Geber krateri – 1935-yilda krater rasman XII asrning birinchi yarmida faoliyat yuritgan arab-islam astronomi Jobir ibn Aflah (lotincha Geber) nomi bilan atalgan.

¹⁵ Ibn Rushd Abdulvalid Muhammad (arabcha: ابن رشد)(lotincha: Averroes) (1126-yil, Kordova — 10-dekabr 1198-yil, Marokash) — arab faylasufi va tabibi, Andalusiya va Marokashda yashagan, qozi va saroy haqimi boʻlgan.

¹⁶ Rojer Bekon XIII asrda yashagan ingliz faylasufi, olimi va rohibi boʻlgan. U taxminan 1214-yilda tugʻilgan va 1294-yilda vafot etgan. Bekon oʻz davrining ilmiy tafakkuriga katta taʼsir koʻrsatgan va zamonaviy fanning asoschilaridan biri hisoblanadi.

¹⁷ Leonardo da Vinchi (1452-1519) Uygʻonish davrining italyan polimati (koʻp qirrali zot), rassomi, haykaltaroshi, arxitektori, olimi, ixtirochisi, anatomisti, muhandisi, geologi, kartografi, botanigi va yozuvchisi boʻlgan.

¹⁸ Yoxannes Kepler XVII asrda yashagan nemis astronomi, matematigi va astrologi. Uning asosiy yutuqlari sayyoralarning harakati qonunlarini aniqlashi boʻlgan. Bu qonunlar “Kepler qonunlari” nomi bilan mashhur va zamonaviy astronomiyaning muhim asoslaridan biri hisoblanadi.

Toledodagi mashhur tarjimonlar — Chesterlik Robert¹⁹, Kremonalik Gerard²⁰ va Dominik Gundisalvi²¹ — arab tilidagi ilmiy merosni lotin tiliga o'g'irgan holda Yevropa ilm-fanining taraqqiyotiga kuchli turtki berdilar. Gerard Ibn Sinoning «Tib qonunlari», Batlamiyusning «Almagest»i, Kindiy, Arastu, Arximed, Yevklid, Galen, Gippokrat, Zakariyo ar-Roziy, Forobiy kabi olimlarning asarlarini tarjima qildi. Tarjimasi 80 dan ortiq kitobni qamrab olgan. Dominik Gundisalvi esa Ibn Sinoning «Metafizika», «Ruh haqidagi kitob»i, G'azzoliy, Forobiy asarlarini tarjima qilgan.

Mixail Skot²², Eugenio de Palermo²³ va Petr Alfonsi²⁴ kabi boshqa tarjimonlar ham arabcha ilmiy adabiyotlarni Yevropa dunyosiga tanishtirishda muhim rol o'ynadi. Skot Ibn Rushdning Arastu sharhlarini, Petr Alfonsi esa ilk bor tibbiyot, astronomiya va tarixga oid risolalarni G'arbga yetkazdi. Aytish joizki, Klavdiy Ptolemey²⁵ning asarlari ham arab tili orqali Yevropaga qayta tanishtirildi.

Yevropada arab ilmining obro'-e'tibori shu darajada yuksak ediki, 1311-1312 yillarda Viyenna cherkovida Rim, Parij, Bolonya, Oksford va Salamanka universitetlarida arab, yahudiy va xaldey tillari bo'yicha professuralar tashkil qilish qarori qabul qilingan. Ammo bu loyiha mutaxassislar yetishmovchiligi sababli XVI asrgacha amalga oshmay qolgan.

Al-Andalus ilm-fanining cho'qqisida joylashgan Qurtuba shahri IX – X asrlarda dunyoning eng mashhur ilmiy markazlaridan biriga aylangan edi. Shaharda 70 dan ortiq kutubxona bo'lib, ularning eng mashhuri xalifa al-Hakam II tomonidan tashkil etilgan bo'lib, unda 400 mingdan ortiq kitob mavjud edi. Bu kutubxona faqat boy manba emas, balki tarjima va kitob nusxalash ishlarining ham markazi bo'lgan.

Islom olimlarining riyoziyot, falsafa, tibbiyot, kimyo va boshqa sohalardagi yutuqlari G'arb madaniyati taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatdi. G'arb olimlari, xususan, Jak Risler va E.F. Gaute musulmonlarning riyoziyotdagi xizmatlarini alohida e'tirof etganlar.

¹⁹ Chesterlik Robert XII asrda yashagan ingliz olimi, tarjimoni, astronomi va matematik edi. U, ayniqsa, arab ilmiy matnlarini lotin tiliga tarjima qilgani bilan mashhur. Bu tarjimalar G'arbiy Yevropada ilm-fan va matematikani rivojlantirishda muhim rol o'ynadi.

²⁰ Kremonalik Gerard (1114 – 1187) XII asrning mashhur italyan tarjimoni, olimi va faylasufi. U Ispaniyaning Toledo shahrida arab tilidan lotin tiliga 70 dan ortiq ilmiy asar tarjima qilgani bilan tanilgan. Uning tarjimalari orqali qadimiy yunon va arab olimlarining asarlari Yevropada qayta kashf etildi va G'arb ilm-fanining rivojlanishiga katta hissa qo'shdi.

²¹ Dominik Gundisalvi XII asrda yashagan ispan faylasufi va tarjimoni edi. U Toledoda faoliyat yuritgan va o'rta asrlar Yevropa falsafasining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Gundisalvi, arab falsafiy va ilmiy matnlarini lotin tiliga tarjima qilish bilan mashhur. Uning tarjimalari, ayniqsa, Aristotel, Al-Farobiy, Ibn Sino va boshqa olimlarning asarlarini o'z ichiga olgan.

²² Mixail Skot (1175-1232) XII va XIII asrlarda yashagan shotlandiyalik olim, tarjimon, astrolog va faylasuf. U arab va yahudiy olimlarining asarlarini lotin tiliga tarjima qilgani bilan tanilgan. Bu tarjimalar G'arbiy Yevropada Aristotelning falsafasi, tibbiyot, astronomiya va astrologiya kabi sohalardagi bilimlarning tarqalishiga katta hissa qo'shdi.

²³ Evgenio de Palermo XII asrda Sisiliya qirolligida yashagan olim, tarjimon va davlat arbobi bo'lgan. U Norman qirollari davrida muhim lavozimlarda ishlagan va arab ilmiy asarlarini lotin tiliga tarjima qilgani bilan tanilgan.

²⁴ Petr Alfonsi XI asrning oxiri va XII asrning boshlarida yashagan ispan-yahudiy olimi, yozuvchisi va astronomi edi. U 1106-yilda xristian dinini qabul qilgan va Petr Alfonsi ismini olgan. Uning eng mashhur asari "Disciplina Clericalis" (Olimlar tarbiyasi) bo'lib, bu o'rta asrlar Yevropasida keng tarqalgan ibratli hikoyalar va hikmatli so'zlar to'plami edi.

²⁵ Klavdiy Ptolemey (milodiy 100-170-yillar) qadimiy yunon astronomi, geografi, matematigi va musiqashunosi bo'lgan. U Misrning Iskandariya shahrida yashab ijod qilgan va o'rta asrlar ilm-faniga katta ta'sir ko'rsatgan.

Shotlandiyalik islomshunos Montgomeri Uott esa Ispaniyaning zamonaviy madaniyatida ham musulmon merosining chuqur iz qoldirganini ta'kidlaydi.

Al-Andalus sivilizatsiyasi, ayniqsa Qurtuba va Toledo shaharlari Yevropa Uyg'onish davrining ilmiy poydevorini yaratishda beqiyos xizmat qilgan. Musulmon olimlarining ilmiy-ma'naviy merosi g'arb dunyosining shakllanishi va rivojida hal qiluvchi rol o'ynadi. Bu o'zaro madaniy muloqot nafaqat ilm-fan, balki umumiy insoniyat taraqqiyoti yo'lida katta tarixiy ahamiyat kasb etdi.

Al-Andalus (Andalusiya) – o'rta asrlarda musulmonlar tomonidan boshqarilgan Ispaniya va Portugaliya hududlari – nafaqat islom olamining, balki butun Yevropaning ilmiy, madaniy va iqtisodiy taraqqiyotida muhim rol o'ynagan. Bu hududda VIII asrdan boshlab barpo etilgan boy madaniy meros, asrlar osha butun dunyo tarixida chuqur iz qoldirdi.

950-yilda Qurtubada (Cordoba) Yevropadagi ilk qog'oz ishlab chiqarish fabrikasi tashkil etildi. Bu texnologik taraqqiyot Vizantiyada faqat 1100-yilda, Sitsiliyada 1102-yilda, Germaniyafa 1228-yilda va Angliyada esa 1309-yilda amalga oshdi. Shu orqali Andalus madaniyati Yevropa texnik taraqqiyotiga yo'l ochdi.

O'rta asrlarda Qurtuba shahrining aholisi bir milliondan ortiq bo'lib, 100 mingta oddiy aholi yashaydigan uylar bilan birga 60 mingdan ortiq boy tabaqa vakillari istiqomat qilgan uylarga ega edi. Aholining deyarli barchasi savodli bo'lib, ilm olishga, ilmiy munozaralarda qatnashishga, kitoblar o'qish va ularni tahlil qilishga qiziqqan. Hatto ayollar orasida ham kitob yig'ish odati keng tarqalgan edi.

Sanoat va savdo sohaları ham yuksak darajada rivojlangan bo'lib, kon mahsulotlari, ipak, qurol-yarog', shakar kabi mahsulotlar orqali Yevropa va Sharq o'rtasida vositachilik qilingan.

Qishloq xo'jaligida esa musulmonlar ilg'or sug'orish tizimlari va ekinlar bilan yirik yutuqlarga erishdilar. Shakarqamish, tut daraxti, sholi, paxta va boshqa ko'plab ekinlar keng ekila boshladi. Sug'orish inshootlari hozirgacha mavjud bo'lib, ularning barpo etilishi arablar faoliyatining guvohi sifatida tarixda saqlanib qolgan (Gyustav Lebon, Arablar madaniyati, 1884).

Musulmonlar Andalusiya bog'lar va dam olish maskanlari barpo etish madaniyatini ham joriy qilgan bo'lib, qirolik bog'lari ilk bor aynan bu yerda paydo bo'lgan. Jamoat infratuzilmasi – yo'llar, ko'priklar, mehmonxonalar – keng miqyosda barpo etilib, Rim davridan keyingi eng katta qurilish ishlari aynan musulmonlar tomonidan amalga oshirilgan.

Ilm-fan va san'atda ham musulmonlar yetakchi bo'lganlar. Qurtubada minglab ilmiy qo'lyozmalar mavjud bo'lib, ularni Arxiyepiskop Ximenes²⁶ yoqib yuborishga urinadi, biroq ularning izlari me'morchilik, madaniyat va xalq xotirasida saqlanib qoladi. Yevropada ilk bor keng qamrovli dengiz savdosi aynan musulmonlar floti orqali amalga oshirilgan. Ular uzoq vaqt davomida O'rta Yer dengizining mutlaq hukmdori bo'lib qolganlar.

Musulmonlarning axloqiy qadriyatlari ham Yevropaga katta ta'sir ko'rsatgan. Ular bag'rikenglik, odob-axloq, so'zga sodiqlik, kuchsizga yordam berish kabi qadriyatlarni joriy

²⁶ Arxiyepiskop Ximenes – bu ispaniyalik diniy arbob, davlat arbobi va kardinal bo'lgan. U Granadani zabt etish (rekonkista) jarayonida muhim rol o'ynagan. Granadaning zabt etilishidan keyin xristianlashtirish siyosatini amalga oshirgan. Qirolicha Izabella vafotidan so'ng, Fransisko Ximenes Ispaniya regenti (vaqtincha hukmdori) vazifasini bajargan. U qirol Ferdinandning vorisi bo'lgan Karl I (keyinchalik imperator Karl V) voyaga yetgunga qadar mamlakatni boshqargan.

etgan. Bu qadriyatlar keyinchalik ritsarlik kodekslari sifatida nasroniylar tomonidan qabul qilingan. Musulmonlar diniy erkinlikni ta'minlab, nasroniy ruhoniylarga cherkov yig'inlarini o'tkazishga imkon yaratgan, yahudiylar esa aynan musulmonlar boshqaruvidagi Andalusiya panoh topganlar.

Al-Andalusning ta'siri faqat madaniyat bilan cheklanib qolmay, tilshunoslikda ham aks etdi: ispan tilida to'rt mingdan ortiq, portugal tilida esa mingdan ortiq arabcha so'z mavjud. Hatto "Portugaliya" nomi ham "port" (lotincha) va "qal'a" (arabcha) so'zlarining birikmasidan kelib chiqqan. "Apelsin" ma'nosini anglatuvchi so'z – "burtuqol" – Portugaliya nomi bilan bog'liq holda arab tilidan o'zlashgan. Bugun ham Portugaliyaning Algarvi (arabcha "al-g'arb", ya'ni "g'arb") viloyatida o'sha davr me'morchilik yodgorliklari saqlanib qolgan.

Yevropada keng tarqalgan odob-axloq tizimi, savodxonlik, ilmlar rivoji, hatto bugungi kundagi kundalik hayot madaniyatining ko'plab unsurlari – xususan, uch taomdan iborat tushlik qilish tartibi va billur idishlardan foydalanish – musulmonlar orqali Yevropaga kirib kelgan.

1492-yilda Granada²⁷ ning qulash bilan Andalusiya musulmonlar hukmronligiga yakun yasaldi. Shu yili Kolumb Amerikaning kashf etgani kabi, Yevropaning g'arbiy chekkasida ulkan bir sivilizatsiya tarix sahnasidan chiqdi. Ammo Andalus xotirasi bugungi kungacha yashab kelmoqda – nafaqat ispan va portugal tillarida, balki ularning madaniyati, ilm-fani va hayot tarzida hamon uning izi mavjud.

Al-Andalus tarixi – bu faqat musulmonlarning Ispaniyadagi hukmronligi tarixi emas, balki butun insoniyat sivilizatsiyasi uchun o'rnak bo'la oladigan noyob tamaddun namunasidir. Sakkiz asrdan ortiq davom etgan bu davrda Andalus musulmonlari nafaqat o'zlarining diniy va siyosiy tuzumlarini barpo etdilar, balki Yevropa tarixining eng muhim ilmiy va madaniy o'zgarishlariga zamin yaratdilar.

Eng avvalo, Al-Andalus ilm-fan va falsafa rivojining markaziga aylangan edi. Qurtuba, Sevilla, Toledo kabi shaharlarda yuzlab kutubxonalar, madrasalar va tarjima markazlari faoliyat yuritgan. Musulmon, yahudiy va nasroniy olimlarning hamkorlikdagi ishlari tufayli qadimgi yunon, rim va hind ilmlarining asarlari saqlanib qolib, arab tili orqali qayta kashf etildi hamda lotin tiliga tarjima qilinib Yevropa uyg'onish davrining intellektual asosini tashkil etdi. Ibn Rushdning Aristotelga yozgan sharhlari, Ibn Sino va Al-Zahraviyning tibbiy asarlari, al-Xorazmiy va al-Zarqaliyning matematik ishlari aynan Al-Andalus orqali G'arbga yoyildi.

Shuningdek, bu davrda jamiyatda bag'rikenglik va dinlararo hamkorlikka asoslangan ijtimoiy model – "convivencia"²⁸ amalda qo'llanilgan. Bu turli diniy guruhlarining o'z e'tiqodida erkin yashashi, birgalikda ishlashi va rivojlanishi uchun qulay muhit yaratgan edi. Andalus jamiyatidagi bu murosali muhit G'arbda tolerantlik g'oyalarining shakllanishiga, keyinchalik esa demokratik qadriyatlarning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan.

Bundan tashqari, Al-Andalusda shaharsozlik, arxitektura, qishloq xo'jaligi va sanitariya sohalarida ham ilg'or texnologiyalar joriy etilgan.

²⁷ Granada amirligi Pireney yarim orolida musulmonlar hukmronligi ostida qolgan so'ngi hudud edi. Amirlik Nasridlar (1232 – 1492) sulolasi tomonidan boshqarilgan 1492-yilda Granadaning qulashi Ispaniya tarixidagi juda muhim voqea bo'lgan. Bu voqea 781-yillik Rekonkista (reconquista — qayta zabt etish)ning yakuni edi.

²⁸ Tarixiy kontekstda convivencia atamasi O'rta asrlar Ispaniyasida, ayniqsa, musulmonlar, nasroniylar va yahudiylar bir hududda tinchlik va nisbatan totuvlikda yashagan davrni ifodalash uchun ishlatiladi. Bu davrda turli din va madaniyat vakillari o'zaro aloqada bo'lib, ilm-fan, madaniyat va savdo sohalarida bir-biriga ta'sir ko'rsatgan.

Hammomlar, suv inshootlari, bog'lar va yorqin me'moriy yodgorliklar Andalus sivilizatsiyasining nafislik va amaliylikka asoslangan yondashuvini ifodalaydi. Bu madaniyatning nafaqat moddiy, balki ma'naviy merosi ham bugungi kungacha turli jamiyatlar uchun ilhom manbai bo'lib qolmoqda.

Shu tariqa, Al-Andalusni tarixiy-geografik bir fazoda cheklab bo'lmaydi. U umumiy insoniyat merosining ajralmas bo'lagi, ilmiy taraqqiyot, diniy bag'rikenglik va madaniy uyg'unlikning timsolidir. Uning merosi orqali G'arb o'z "uyg'onish"ini boshladi; demak, Al-Andalus faqat o'tgan zamonning bir sahifasi emas, balki kelajak avlodlar uchun ham madaniyatlararo muloqot va ilmiy izlanishlar uchun zaruriy saboqdir.

Foydalanilgan adabiyot va manbalar ro'yhati

1. Collins, Roger. The Arab Conquest of Spain, 710–797. Blackwell, 1989.
2. Kennedy, Hugh. Muslim Spain and Portugal: A Political History of al-Andalus. Routledge, 1996.
3. Fletcher, Richard. Moorish Spain. University of California Press, 1992.
4. Menocal, María Rosa. The Ornament of the World: How Muslims, Jews, and Christians Created a Culture of Tolerance in Medieval Spain. Little, Brown and Company, 2002.
5. Watt, W. Montgomery, and Pierre Cachia. A History of Islamic Spain. Edinburgh University Press, 1965.
6. Hawting Gerald R. The First Dynasty of Islam: The Umayyad Caliphate AD 661-750. – London and New York: Routledge, 2000.
7. Kennedy Hugh. The Great Arab Conquestes: How the Spread of Islam Changed the World We Live In. – Philadelphia: Da Capo Press, 2008.
8. Al-Andalus: The Art of Islomic Spain, held at the Alhambra, Granada (March 18-June 7, 1992), and The Metropolitan Museum of Art, New York (July 1-September 27, 1992).
9. Nasr, S. (2017). Islam va ilm-fan: Yaqin Sharqdagi yutuqlar. London: Oxford University Press.
10. Евгений Александрович Беляев. Арабы, ислам и арабский халифат в раннее средневековье. «Наука». Москва. 1966.
11. К.Э.Босворт. Мусулмон сулолалари. Тошкент "Фан" 2007.
12. Davronov, A. (2019). O'rta asrlar va Islomdagi ilm-fan rivojlanishi. Toshkent: O'qituvchi.